

# Voleybol: "O'zbekiston kubogi"



Termiz shahrida sportning voleybol turi bo'yicha (U-14) 14 yoshga to'lmagan o'smirlar va qizlar o'rtasida "O'zbekiston kubogi" musobaqasining final bosqichi bo'lib o'tdi.

Musobaqaga respublikamizning barcha viloyatlaridan sportchi yoshlarimiz voleybolda o'z mahoratlarini ko'rsatdi.

"O'zbekiston kubogi" musobaqasida qizlar o'rtasidagi final bosqichi Surxondaryo viloyati va Namangan viloyatlari o'rtasida bo'lib o'tdi.

Musobaqa qizg'in davom etdi va

Surxondaryo jamoasi 2:1 Namangan jamoasi

hisobida surxon barchinoylari g'alaba qozondi va bu Surxondaryo voleybol tarixida ilk g'alaba bo'ganligi qayd etildi.

Musobaqa yakunida tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi va g'olib bo'lgan jamoalarga qimmatbaho sovg'alar topshirildi.